

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

MAXSUDJONOV KAMRONJON MAXSUDJONOVICH

MA'RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS
MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Maxsudjonov Kamronjon Maxsudjonovich

Ma'rifiy tashkilotlar tizimining shaxs ma'naviy madaniyatini
yuksaltirishdagi roli3

Махсуджонов Камронжон Махсуджонович

Роль системы просветительских организаций в повышении духовной
культуры личности23

Makhsudjonov Kamronjon Makhsudjonovich

The role of the system of enlightenment organizations in enhancing individual
spiritual culture45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati.

Список опубликованных работ.

List of works published.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

MAXSUDJONOV KAMRONJON MAXSUDJONOVICH

**MA'RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIY
MADANIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fal1494 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Omonov Bahodir Nurillayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turdiyev Bexruz Sobirovich
falsafa fanlari doktori, professor

Pardayeva Marhabo Davlatovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "30" iyul soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (942 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "16" iyul kuni tarqatildi.

(2026-yil "16" iyul dagi 21 raqamli reyestr bayonnomasi.)



B.B. Namozov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

A.Z. Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

N.O. Safarova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv, ommaviy madaniyat ta'siri va qadriyatlar tizimida kechayotgan o'zgarishlar jarayonida inson faqat iqtisodiy yoki siyosiy jarayonlarning ishtirokchisi emas, balki axloqiy tanlov, madaniy identifikatsiya va ijtimoiy faollik subyekti sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunda shaxs ma'naviy madaniyatini yuksaltirish, ma'rifiy tashkilotlar tizimining shaxs ma'naviy madaniyatini takomillashtirishdagi rolini oshirish, ular faoliyatini tubdan isloh qilish, "inson-jamiyat-davlat" konsepsiyasiga muvofiq har tomonlama kamol topgan shaxslarni tarbiyalash dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun shaxs ma'naviy madaniyatining bilim, e'tiqod, qadriyat, dunyoqarash, ijtimoiy mas'uliyat va amaliy xatti-harakatlarini uyg'unlashtiruvchi murakkab tizim sifatida talqin etish, mazkur jarayonda ma'rifiy tashkilotlarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiruvchi muhim institutsional tuzilmalar sifatidagi rolini aniqlash, shaxs ma'naviy madaniyatiga ta'sir ko'rsatish omillarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida ta'lim, madaniyat, madaniy identiklik muammolari hamda ma'rifiy institutlarning shaxs kamolotiga ta'siri, ijtimoiylashuv, madaniy kapital, ma'naviy barqarorlik va jamoaviy identiklikni shakllantirishdagi o'rniga oid fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jamiyatda inson hayoti, shaxs ma'naviy-ma'rifiy tafakkuri, tashabbuskorligi, axloqiy fazilatlari, fidoyiligi tushunchasi, mohiyati, rivojlanish xususiyatlari ma'rifiy tashkilotlarning faollik darajasi, ta'sir etish ko'lami, obyektiv va subyektiv omillariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan ma'rifiy tashkilotlarni faqat targ'ibotchi yoki tadbir o'tkazuvchi institut emas, balki shaxs ma'naviy madaniyatining qadriyatli, me'yoriy, kommunikativ, tarbiyaviy tarkiblariga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy mexanizm sifatida o'rganish, ular faoliyatiga ta'sir ko'rsatayotgan zamonaviy muammolar, ularning ko'p qirrali erkin harakatiga to'sqinlik qilayotgan cheklovlar, shaxs va ma'rifiy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-madaniy jihatlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda ma'naviy madaniyati yuqori shaxslarni kamol toptirish, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davlat siyosati, jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamoloti bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirish, yoshlarning intellektual va ma'naviy kamolotini ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. "Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – davr talabidir"¹. Shu munosabat bilan mamlakatimizda ma'rifiy tashkilotlarning shaxs ma'naviy madaniyatini yuksaltirishdagi rolini aniqlashtirish, zamonaviy modellarini amaliyotga joriy etish, aholining ma'naviy salohiyati va madaniyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – B.275.

O‘zbekiston Respublikasining, 2025-yil 25-fevraldagi O‘RQ-1037-son “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 21-apreldagi PF-68-son “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Shaxs ma’naviy madaniyatining zamonaviylashuvi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga yondosh ravishda har bir davr oralig‘ida real voqelik bilan bog‘liq jamiyat ma’naviy hayotining yuksalishiga xizmat qilgan. Jahonda ma’naviy madaniyatning yoshlar dunyoqarashiga ta’siri, uning mazmun-mohiyati va tarkibiy elementlari J.Anderson, S.Anisimov, G.Belov, M.Veber, I.Ilin, V.Konev tomonidan tadqiq etilgan. Jamiyatda madaniyatning yoshlar muammosi va bag‘rikenglikka oid jihatlari A.Beyli, I.Gerder, L.Gumilev, E.Orlova, M.Xomyakov ilmiy izlanishlarida alohida muammo sifatida olib qaralgan².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlarining ko‘plab olimlari ma’naviy madaniyatning voqelikda rivojlanish sababiyatlari, turli xalqlar tafakkuridagi kombinatsion o‘zgarishlar, ayrim andozalarning yangicha tasavvur va milliy ruhdagi

² Андерсон Ж. Пространство, время и категории: Лекции по метафизике 1949–1950. – Sydney: Sydney University Press, 2007. – С. 210.; Анисимов С. Духовные ценности: производство и потребление. – Москва: Мысль, 1988. – С. 253.; Белов Г. История философии науки. – Москва: Издательский дом МГУ, 2012. – С.432.; Вебер М. Наука как призвание и профессия // М. Вебер. Избранные произведения. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 456.; Ильин И. Путь духовного обновления. Собр. соч. в 10 т. – Москва: Русская книга, 1993. – С.408.; Конев В.А. Культура и архитектура педагогического пространства // Вопросы философии. – 1996. – № 10. – С. 52.; Бейли А. Трактат о белой магии и путь ученика. – Москва: Мысль, 2013. – С.512.; Гердер И. Идеи к философии истории человечества. Часть третья. – Москва: Наука, 1977. –С.703.; Гумилев Л. Этносфера. История людей и история природы.– М., 1993. – С.41.; Орлова Э. Введение в социальную и культурную антропологию. –Москва: 1994. – С.384.; Хомяков М. История современной философии Севера // История философии XX века. Современная зарубежная философия. – Москва: Проспект, 2016. – С.320.

istak-mayllar bilan bog'liqligini ko'rsatib berishgan. Jumladan, Yu. Borev, L.Gumelyov, A.Guseynov, V.Lektorskiy, I.Ilinskiy, M.Kagan³ asarlarida ushbu jihatlariga chuqur e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda shaxs ma'naviy madaniyatini nazariy-metodologik jihatdan ilmiy o'rgangan faylasuflar jamiyatda mazkur jarayonning milliy-ma'naviy xususiyatlari, umumnazariy asoslari, real voqelik bilan uyg'unlashgan tomonlarini keng tadqiq etishgan. T.Sultanov, A.Ashirov, M.Mamatov, M.Pardayeva, B.Turdiyev, N.Teshayev, T.Xo'janova, A.Qurbonov, I.Imomnazarov, G.Ochilova, Y.Jumaboyev, E.Yusupov, S.Shermuhamedov, X.Shayxova, T.Mahmudov, O.Xudoynazarov, A.Yusupov, S.Otamuratov, Q.Kdirbayev, U.Qorabayev, N.Muhammadiyev, A.Erkayev, O.G'aybullayevlarning tadqiqotlarida shaxs ma'naviy kamoloti masalalari o'rganilgan⁴. Shuningdek, shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy, tarixiy muammolari bilan bog'liq masalalar B.Aliyev, A.Sharipov, Z.Qodirova, A.Huseynova, M.Vohidova, L.Gadoyeva, G.K.Ismoilova, J.X.Boysunov ilmiy ishlarida tahlil etilgan⁵.

³ Боров Ю. Эстетика: Учебник. – Москва: Высшая школа, 2002. – Б. 511.; Гумелёв Л. Древние тюрки. – Москва: Айрис-пресс, 2016. –Б. 560; Гусейнов А.. Философия – мысль и поступок: Статьи, доклады, лекции, интервью. СПб.: СПбГУП, 2012. – Б. 848.; В. Лекторский. Философия психологии. –Москва; Политическая энциклопедия, 2016. – Б. 344; Ильинский И. Образование. Молодежь. Человек (статьи, интервью, выступления). Кн. 2. Москва: Изд-во Моск. гуманит. ун-та. – Б. 530; М.С.Каган. *Философия культуры: становление и развитие / Каган М., Сергеев К., Светлов Р. и др.* – СПб.: Лань, 1998. –Б. 443.

⁴ Sultanov T. Yangi O'zbekistonda iqtidorli yoshlar intellektual salohiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari: Fal. fan. dok. (DSc)... dis. avtoref. – Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti, 2023. –Б. 70.; Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. –Б. 274.; Маматов М. Янгиланаётган Ўзбекистоннинг маънавий тараққиёт тамойиллари – баркамол авлодни тарбиялаш омили: Фал. фан. dok. (DSc)... дис. – Тошкент: Республика Маънавият ва маърифат маркази хузуридаги Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти, 2023. – Б. 80.; Пардаева М.Д. Алишер Навоий асарларида комил инсон ғояси. Фалс. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗМУ, 2010. –Б. 26.; Turdiyev B.S. Yangi O'zbekiston jamiyati ijtimoiy taraqqiyoti ideosferasidagi o'zgarishlar dinamikasi. Fals. fan. dok. (DSc)... dis. avtoref. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2024. – Б. 76.; Teshayev N.N. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ma'naviy omillari va mafkuraviy tamoyillari. Fals. fan. dok. (DSc)... dis. avtoref. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2024. – Б. 74.; Xo'janova T.J. O'zbekiston yoshlarini axborot urushi davrida mafkuraviy tajovuzdan asrashning ijtimoiy-falsafiy tahlili. Fals. fan. dok. (DSc)... dis. avtoref. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2025. – Б. 76.; Qurbonov A. Badiiy adabiyot – shaxs ma'naviy yuksalish omili: Fals. fan. bo'y. fals. dok. (PhD)... dis. avtoref. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2024. –Б. 51.; Имомназаров И. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. – Тошкент: Шарқ, 1998. –Б. 240.; Очилова Г. Ўзбекистон фуқаролари онгида миллий давлатчилик тафаккурини ривожлантириш масалалари: Фалс. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: Ўзбекистон миллий университети, 2012. –Б. 29.; Жумабоев Й. Ўзбекистонда фалсафа ва ахлоқий фикрлар тараққиёти тарихидан. – Тошкент: Ўқитувчи-Зиё нашр, 1997. – Б. 182.; Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Тошкент: Университет, 1998. – Б. 184.; Шермухамедов С., Очилдиев А. Маданият ва цивилизация. – Фарғона: Фарғона давлат университети, 2000. – Б. 42.; Шайхова Х., Назаров Қ. Умуминсоний қадриятлар ва маънавий камолот. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 116.; Махмудов Т. Эстетика и духовные ценности. – Ташкент: Шарқ, 1993. –Б. 202.; Худойназаров О. Янгиланаётган Ўзбекистонда ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг маънавий-ахлоқий омили (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Фалс. фан. бўй. фалс. dok. (PhD)... дис. автореф. – Тошкент: Ўзбекистон миллий университети, 2022. –Б.58.; Yusupov A. Yoshlar siyosiy faolligini oshirishning madaniy va mafkuraviy omillari: Fals. fan. bo'y. fals. dok. (PhD)... dis. avtoref. – Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti, 2023. – Б.48.; Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 456.; Kdirbayev Q. Yangi O'zbekistonda shakllanayotgan qadriyatlar tizimining ijtimoiy-falsafiy tamoyillari: Fals. fan. bo'y. fals. dok. (PhD)... dis. avtoref. – Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti, 2024. –Б. 52.; Карабаев У. Этнокультура (Традиционная народная культура). – Ташкент: Шарқ, 2005. –Б. 239.; Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. – Б.184.; О. Файбуллаев. Шахс маънавий камолоти ва эстетик маданият. – Тошкент: Чашма принт, 2008. – Б. 160.

⁵ Qarang: Алиев Б. Шахс маънавий-ахлоқий тарбияси ҳамиша муҳим // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. –№ 23. – Б. 628–632.; Шарипов А. Янги Ўзбекистонда маънавий-мафкуравий ислохотлар: ижтимоий-фалсафий таҳлил. Монография. – Бухоро: Дурдона, 2021. –Б.235.;

Mazkur tadqiqotlarda yoshlar, shaxs ma'naviy madaniyatini o'rganishning ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy jihatlariga e'tibor qaratilgan, ammo ular ma'rifiy tashkilotlarning shaxs ma'naviy madaniyatini yuksaltirishni tadqiqot obyekti qilib qo'ymagan. Shunga ko'ra, biz taqdim etayotgan dissertatsiyada mazkur muammo tadqiqot obyekti qilib olingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A-1-173 raqam "Barkamol inson shaxsini shakllantirishning obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillari" (2025-2030 yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ma'rifiy tashkilotlarning shaxs ma'naviy madaniyatiga ta'siri hamda uni yuksaltirishdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“shaxs ma'naviy madaniyati” konseptining metodologik mazmunini asoslash; zamonaviy jamiyatda ma'rifiy tashkilotlarning ahamiyati, funksiyalarini va shaxs ma'naviy madaniyatiga ta'sir ko'rsatish shakllarini aniqlashtirish;

ma'rifiy tashkilotlar faoliyatiga oid zamonaviy muammolar va cheklovlarni, shaxs va ma'rifiy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijtimoiy-madaniy jihatlarini ochib berish;

shaxs sotsializatsiyasi va ma'rifiy tuzilmalar integratsiyasining sotsiomadaniy parametrlarini ochib berish;

ma'rifiy tashabbuslarni rivojlantirishda davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati institutlari integratsiyasini optimallashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishga qaratilgan ma'rifiy jarayonlar, ma'rifiy tashkilotlarning jamiyat ma'naviy hayotidagi institutsional faoliyati tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini ma'rifiy tashkilotlar tizimining shaxs ma'naviy madaniyatini yuksaltirishdagi roli, ta'sir etish shakllari, usullari, sotsiomadaniy parametrlari va optimallashtirish mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda analiz va sintez, qiyosiy tahlil, germeneytik, fanlararo yondashuv, retrospektiv tahlil, tizimli yondashuv, dialektik, germeneytik, sinergetik tahlil kabi bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“shaxs ma'naviy madaniyati”, “shaxs ma'naviy qiyofasi” tushunchalarining qadriyat, axloqiy-me'yoriy pozitsiya va amaliy faoliyat birligida namoyon bo'lishi, oila, ta'lim, mahalla va ma'rifiy tashkilotlar ta'sirida shakllanishi, ijtimoiy muhit

Қодинова З., Каримова З. Миллий кадриятларни таълим тизимиға татбиқ этишининг психологик жиҳатлари. – Тошкент: Тафаккур, 2010. –Б. 120.; Хусейнова А. Аёлларнинг жамият ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги ўрни // Взгляд в прошлое. – 2021; Вохидова М. Толерантлик – ёшларни ижтимоий-ахлоқий юксалтириш омили. – Бухоро: Дурдона, 2020.; Гадоева Л. Ўзбекистонда соғлом турмуш тарзи ва унинг замонавий этномодели: Таҷрибалар, муаммолар, ечимлар. – Бухоро: Дурдона, 2022; Ismoilova G.K. O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'siri: Fals. fan. bo'y. fals. dok. (PhD)... dis. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2024; Boysunov J.X. O'zbekistonda yoshlar ma'naviy madaniyatidagi o'zgarishlar va muammolar. – Qarshi: Nasaf, 2023. –B. 95.

bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanishi hamda shaxsning ma'naviy ehtiyojlari orqali takomillashib borish xususiyatlari ochib berilgan;

ma'rifiy tashkilotlarning zamonaviy jamiyatda ma'naviy muhitni barqarorlashtirish va shaxsning ijtimoiy-madaniy faolligini rivojlantirishdagi o'rni, ularning axborot-ma'rifiy, tarbiyaviy-aksiologik, kommunikativ-integrativ, ijtimoiylashtiruvchi va profilaktik funksiyalari, shaxs ma'naviy madaniyatiga targ'ibot, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, mentorlik orqali ta'sir ko'rsatish mexanizmlari hamda jamiyatda ma'naviy yangilanishni jadallashtirish, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, fuqarolik mas'uliyatini oshirish roli aniqlashtirilgan;

ma'rifiy tashkilotlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatayotgan zamonaviy muammolar (qadriyatlar tizimining o'zgarishi, ommaviy madaniyat bosimi, yoshlar ma'naviy ehtiyojlarining differensiallashuvi va ijtimoiy kommunikatsiya shakllarining yangilanishi) va ularning ko'p qirrali erkin harakatiga to'sqinlik qilayotgan cheklovlar (institutsional tarqoqlik, metodik birxillik, moddiy-resurs imkoniyatlarining yetarli emasligi, raqamli targ'ibot salohiyatidan to'liq foydalanilmasligi) shaxs va ma'rifiy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-madaniy jihatlariga destruktiv ta'sir etishi asoslab berilgan;

ma'rifiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda davlatning strategik boshqaruv, institutsional muvofiqlashtirish, huquqiy-me'yoriy sharoit yaratish va resurslarni safarbar etish kabi roli, jamiyatning fuqarolik faolligini rivojlantirish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash kabi roli orqali ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirishning maqsadli dasturlash, auditoriya ehtiyojlarini diagnostika qilish, interaktiv va raqamli targ'ibot texnologiyalarini joriy etish, ijtimoiy buyurtma, loyiha asosida boshqaruv mexanizmlari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ma'rifiy tashkilotlarning shaxs ma'naviy madaniyatiga ta'sir ko'rsatish funksiyalari axborot-ma'rifiy, tarbiyaviy-aksiologik, kommunikativ-integrativ, ijtimoiylashtiruvchi, profilaktik, reflektiv-motivatsion va amaliy-faollashtiruvchi yo'nalishlar asosida tasniflangan;

jamiyatda shaxs ma'naviy madaniyatining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari, ma'rifiy tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish mexanizmlari, innovatsion g'oyalar bilan boyishi, jamiyatning ma'naviy-axloqiy qiyofasini yuksaltirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ma'rifiy tashkilotlar faoliyatidagi institutsional tarqoqlik, metodik birxillik, tadbirbozlik, auditoriya ehtiyojlarini yetarlicha hisobga olmaslik va natijadorlik mezonlarining zaifligi asosiy to'siqlar sifatida aniqlangan hamda davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati institutlari, mahalla, ta'lim va madaniyat muassasalari hamkorligiga asoslangan ma'rifiy tashkilotlar tizimi faoliyatini optimallashtirish zarurati asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, dissertatsiya doirasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma natijalari

bilan boyitilgani, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ma'rifiy tashkilotlar tizimining shaxs ma'naviy madaniyatini yuksaltirishdagi o'rnini asoslash, "shaxs ma'naviy madaniyati", "ma'rifiy tashkilotlar tizimi", "jamiyat ma'rifiy sferasi" kabi tushunchalarning nazariy-metodologik mazmunini aniqlashtirishda, mazkur konseptni tizimli, funksional, aksiologik va sotsiomadaniy yondashuvlar asosida tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlarda, shuningdek, ma'rifiy tashkilotlarni shaxsning ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi va ma'naviy-madaniy o'zligini shakllantiruvchi institutsional mexanizm sifatida asoslashda, fuqarolik jamiyati institutlari va ijtimoiy institutlar faoliyatini o'rganishga doir ilmiy izlanishlarda nazariy-metodologik manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilgari surilgan g'oyalar, nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalardan ma'naviyat, madaniyat va ma'rifat tizimining faoliyatida, ta'lim muassasalari va ma'rifiy tashviqu bilan shug'ullanadigan tashkilotlar faoliyatini shaxs ma'naviy madaniyatini yuksaltirishga yo'naltirish, ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mazmuni, shakli va usullarini takomillashtirishda, shuningdek, ma'rifiy tashkilotlar, ta'lim muassasalari, mahalla, madaniyat markazlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy kommunikatsiya subyektlari faoliyatini o'zaro integratsiyalash, ularning hamkorligini yo'naltirishda, oliy ta'lim muassasalarida "Ijtimoiy falsafa", "Ma'naviyatshunoslik", "Madaniyat falsafasi", "Fuqarolik jamiyati" kabi fanlar bo'yicha ma'ruza matnlari, seminar mashg'ulotlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va maxsus kurslar tayyorlash faoliyatida foydalanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ma'rifiy tashkilotlar tizimining shaxs ma'naviy madaniyatini yuksaltirishdagi rolini tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

"shaxs ma'naviy madaniyati", "shaxs ma'naviy qiyofasi" tushunchalarining qadriyat, axloqiy-me'yoriy pozitsiya va amaliy faoliyat birligida namoyon bo'lishi, oila, ta'lim, mahalla va ma'rifiy tashkilotlar ta'sirida shakllanishi, ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanishi hamda shaxsning ma'naviy ehtiyojlari orqali takomillashib borish xususiyatlariga oid xulosa va yangiliklardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatida, jumladan 2025-yil uchun rejalashtirgan "Zamonaviy targ'ibot texnologiyalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari", "Har bir davlat xizmatchisi – ma'naviyat targ'ibotchisi" "Farovon hayot sari ilk qadam", Raqamli targ'ibot yo'nalishida "Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari" targ'ibot dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2025-yil 28-iyundagi 02-787-son ma'lumotnomasi). Natijada, ma'rifiy tashkilotlar faoliyatida zamonaviy targ'ibot texnologiyalarini qo'llash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning auditoriyaga ta'sirchanligini oshirish, davlat xizmatchilarining

ma'naviyat targ'ibotchisi sifatidagi ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish hamda raqamli targ'ibot vositalari orqali ma'rifiy jarayonlarning qamrovi va samaradorligini kengaytirishga xizmat qilgan;

ma'rifiy tashkilotlarning zamonaviy jamiyatda ma'naviy muhitni barqarorlashtirish va shaxsning ijtimoiy-madaniy faolligini rivojlantirishdagi o'rni, ularning axborot-ma'rifiy, tarbiyaviy-aksiologik, kommunikativ-integrativ, ijtimoiylashtiruvchi va profilaktik funksiyalari, shaxs ma'naviy madaniyatiga targ'ibot, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, mentorlik orqali ta'sir ko'rsatish mexanizmlari hamda jamiyatda ma'naviy yangilanishni jadallashtirish, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, fuqarolik mas'uliyatini oshirish roliga doir taklif va tavsiyalaridan, fikr-mulohazalardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining oliy ta'lim muassasalari, vazirlik, idoralar va mahallardagi yoshlar yetakchilari uchun tashkil etilgan o'quv seminarlarda ma'ruza va tarqatma materiallarni shakllantirishda hamda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida o'tkazilayotgan "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi tanlov va loyihalarni o'tkazishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 28-iyundagi 4-16-21-3588-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar bilan ishlash tizimida ma'rifiy faoliyatning mazmuni shaxs ma'naviy madaniyatini yuksaltirish, ijtimoiy faollikni kuchaytirish, yoshlar yetakchilarining tarbiyaviy, kommunikativ va tashabbuskorlikka yo'naltirilgan amaliy faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilgan;

ma'rifiy tashkilotlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatayotgan zamonaviy muammolar (qadriyatlar tizimining o'zgarishi, ommaviy madaniyat bosimi, yoshlar ma'naviy ehtiyojlarining differensiallashuvi va ijtimoiy kommunikatsiya shakllarining yangilanishi) va ularning ko'p qirrali erkin harakatiga to'sqinlik qilayotgan cheklovlar (institutsional tarqoqlik, metodik bixillik, moddiy-resurs imkoniyatlarining yetarli emasligi, raqamli targ'ibot salohiyatidan to'liq foydalanilmasligi) shaxs va ma'rifiy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-madaniy jihatlariga destruktiv ta'sir etishiga oid xulosa va umumlashmalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan IL-4821091548-son "Zamonaviy tahdid va da'vatlar sharoitida O'zbekiston va Belarus yoshlari ongi shakllanishining ijtimoiy madaniy va aksiologik asoslari" (2022-2024 yy.) mavzusidagi fundamental ilmiy loyihasi doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 14-avgustdagi 04-11/11051-son ma'lumotnomasi). Natijada, ma'rifiy tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish va jamiyat ma'naviy qiyofasini yuksaltirishga doir innovasion taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

ma'rifiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda davlatning strategik boshqaruv, institutsional muvofiqlashtirish, huquqiy-me'yoriy sharoit yaratish va resurslarni safarbar etish kabi roli, jamiyatning fuqarolik faolligini rivojlantirish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash kabi roli orqali ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirishning maqsadli dasturlash, auditoriya ehtiyojlarini diagnostika qilish, interaktiv va raqamli targ'ibot texnologiyalarini joriy etish, ijtimoiy buyurtma, loyiha asosida boshqaruv

mexanizmlariga doir taklif va tavsiyalaridan Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 14-may kuni efirga uzatilgan “Fayzli kun” nomli teleko‘rsatuvi dastur ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 25-iyundagi 17-05/101-son ma’lumotnomasi). Natijada, ommaviy axborot vositalari orqali ma’rifiy ta’sir ko‘rsatishning kommunikativ imkoniyatlari kengayib, shaxs ma’naviy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ma’rifiy muhitni mustahkamlash, fuqarolarda shaxs ma’naviy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo’yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta (5 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 161 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Shaxs ma’naviy madaniyatini shakllantirishda ma’rifiy tashkilotlar rolini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida “ma’naviyat”, “madaniyat”, “shaxs ma’naviy madaniyati” tushunchalarining mazmun-mohiyati, genezisi, jamiyat taraqqiyotidagi roli haqidagi fikrlar hamda ma’rifiy tashkilotlar tizimli-struktural tahlil qilingan. Shuningdek, jamiyat ma’rifiy sferasining konseptuallashuvi va rivojlanish paradigmalari tadqiq etilgan.

Shaxs ma’naviy madaniyati inson umri davomida *obyektiv va subyektiv omillar* ta’sirida shakllanib, u ijtimoiy muhit, ta’lim, tarbiya va shaxsiy intilishlar bilan chambarchas bog‘liq. Shaxs ma’naviy madaniyatining mohiyatini anglash uchun, avvalo, ma’naviyat kategoriyasi mazmunini to‘la tahlil qilish zarur. Mustaqillik davrida mamlakatda “milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasi” ishlab chiqilishi, milliy qadriyatlarning tiklanishi va o‘zlikni anglash jarayonlariga oid keng ko‘lamli tadqiqotlarning amalga oshirilishi bu boradagi ilmiy qarashlarni yanada boyitdi⁶. Bunda ma’naviyat e’tiqod va qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan barqaror tuyg‘ular,

⁶ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.76-85.

g'oyalar, meyorlar, ideallar va ijtimoiy mo'ljallarni o'z ichiga olgan murakkab tizim sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotda Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida ma'naviyat muhim falsafiy kategoriya sifatida qo'llanilgani, ayniqsa Jaloliddin Rumiy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Forobiy asarlarida inson aqli va ruhiy kamoloti bilan bog'lab izohlangani ta'kidlanadi. Forobiy insonning tana va ruhdan tashqari, aqlni ham asosiy tarkibiy qism sifatida e'tirof etib, ma'naviyatni inson ongi va ruhiy tartibning asosi sifatida talqin qiladi.

Dissertant fikricha, shaxs ma'naviy madaniyatini to'liq anglash uchun madaniyat tushunchasini tushunish zarur. Madaniyat inson va jamiyat yaratgan moddiy va ma'naviy yutuqlarni, ijtimoiy faoliyat mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, shaxs ma'naviy madaniyati va ma'naviy qiyofa o'zaro bog'liq bo'lib, biri shaxsning ichki fazilatlari va axloqiy pozitsiyasini, boshqasi esa, uning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy munosabatlarini belgilaydi. Ushbu tushuncha shaxsning ma'naviy rivojlanishi va ijtimoiy faoliyatini tahlil qilishda asosiy ilmiy-falsafiy kategoriya sifatida xizmat qiladi. Shu ma'noda, shaxs ma'naviy qiyofasi insonning ichki fazilatlari, axloqiy pozitsiyasi va ruhiy barqarorligini aks ettirsa, shaxs ma'naviy madaniyati jamiyatdagi munosabatlari, bilim va madaniy odob-axloqqa rioya qilish darajasi orqali namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda shaxs ma'naviy madaniyati bir qator asosiy elementlardan tashkil topishi asoslab berilgan:

- axloqiy qadriyatlar – odob-axloq, adolat va rostgo'ylikka munosabat;
- intellektual rivojlanish – bilim olish, tahlil qilish va ijobiy qarorlar qabul qilish qobiliyati;
- ruhiy barqarorlik – turli qiyinchiliklarga sabr va halollik bilan yondashish;
- ijtimoiy mas'uliyat – oila va jamiyat oldidagi mas'uliyatni anglash va amal qilish.

Shaxs ma'naviy madaniyati shaxsning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda asosiy omil bo'lib, uning ichki fazilatlari va ijtimoiy munosabatlari o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega.

Ma'rifiy tashkilotlar tizimi shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirish va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Uning tarixiy rivojlanishi to'rt davrda namoyon bo'ladi:

- qadimgi davrda og'zaki ta'lim, ibodatxonalar va ruhoniylar markazlar orqali axloq, madaniy va ma'naviy fazilatlar targ'ib qilingan;
- o'rta asrlarda monastir maktablari, madrasalar, kafedral maktablar va universitetlar bilim va ma'rifatni saqlash va tarqatishda asosiy rol o'ynagan;
- yangi davrda universitetlar, kutubxonalar va ma'rifiy jamiyatlar orqali fan, adabiyot va ijtimoiy adolat rivojlantirilgan; hozirgi davrda esa maktabgacha ta'lim, umumiy va oliy ta'lim muassasalari, ilmiy va madaniy markazlar, ommaviy axborot vositalari hamda notijorat tashkilotlar shaxs ma'naviy madaniyatini mustahkamlash va barqaror ijtimoiy muhitni ta'minlashda faoliyat ko'rsatadi⁷.

⁷ Qodirova M.M., Amirov M., Cho'lliev O'. Nodavlat notijorat tashkilotlar inson omili uchun // Ta'lim fidoyilari. – 2024. – Jild 1, – № 11. (1-qism). – B. 60-63.

Ma'rifiy tashkilotlar faoliyati pedagogik, psixologik, ijtimoiy, falsafiy, menejment, texnologik va innovatsion nazariy asoslarga tayanadi. Ular bilim tarqatish, axloqiy fazilatlar va madaniy merosni saqlash, avlodlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirish hamda davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, ma'rifiy tashkilotlar yoshlar intellektual va ma'naviy rivoji, ijtimoiy adolat va demokratik qadriyatlarni shakllantirishda ham qo'llanadi. Ushbu tizimning samarali faoliyati jamiyatning ma'naviy muhiti, davlat suvereniteti va xalqaro hamkorlik uchun ham asosiy shart bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda jamiyat ma'rifiy sferasining tarixiy-falsafiy konseptuallashuvi va rivojlanish paradigmalari tahlili asosida shaxs ma'naviy madaniyatining shakllanishi tarixan ma'rifiy faoliyat bilan uzviy bog'liq ekanligi asoslangan. U doimiy va dinamik jarayon sifatida har bir davrda jamiyatning axloqiy qadriyatlari, ma'rifatga munosabati va ma'naviy ehtiyojlari asosida rivojlanib kelgan. Jamiyatdagi ma'rifiy faoliyat insonlarni bilim, axloq va ma'naviy qadriyatlar orqali tarbiyalash jarayoni bo'lib, shaxs ma'naviy madaniyati va jamiyat taraqqiyoti o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Shaxs ma'naviy madaniyatining shakllanishi *obyektiv omillar* (ta'lim, hayotiy tajriba, kasbiy faoliyat) va *subyektiv omillar* (tarbiya, malaka oshirish, maxsus tayyorlov) natijasida rivojlanadi. *Subyektiv omillar* harakatga tushganda shaxs ma'naviy madaniyatida to'liqlik paydo bo'lib, jamiyatda ham ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, shaxs ma'naviy madaniyati – insonning ichki dunyosi, axloqiy va ma'naviy qadriyatlari, uning o'z-o'ziga va jamiyatga nisbatan munosabati, shaxsning xulq-atvorini, amallari va o'ylarini shakllantiruvchi jihatlardan iborat tushunchadir. Bu tushuncha odamning jamiyatdagi o'rni va faoliyatini, hayotga bo'lgan munosabatini belgilovchi muhim omildir. Ma'rifiy faoliyat deganda – insonning aqlli jamiyatga o'tganidan to bugungi kunga qadar, kelajak taraqqiyotini ko'zlagan holda, insoniy fazilatlarini takomillashtirishga qaratilgan, tabiat, jamiyat, xalq, davlat manfaatlariga yaraydigan, rivojlanishga munosib hissa qo'shadigan, milliy, umuminsoniy qadriyatlarga yondashadigan shaxslarni ma'naviy, madaniy, jismoniy kamol toptirishning ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlar majmuasi tushuniladi. Ma'rifiy tashkilotlarning nazariy asoslariga – Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, millat kelajagi, jamiyat va davlat taraqqiyoti, fuqarolar farovonligi, erkin hayoti, huquqlari va adolatni ta'minlashga qaratilgan barcha qonun-qoidalar, hujjatlar, manbalar, an'analar, udumlar va qadriyatlarning universal majmuasi kiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi **“Ma'rifiy tashkilotlar tizimining shaxs ma'naviy madaniyati rivojiga ta'siri”** deb nomlangan bobida zamonaviy jamiyatda ma'rifiy tashkilotlarning ahamiyati va asosiy funksiyalari, shaxs ma'naviy madaniyatiga ta'sir ko'rsatish shakllari va uslublari hamda ma'rifiy tuzilmalar integratsiyasining sotsiomadaniy jihatlari tadqiq etilgan.

Ma'rifiy tashkilotlar zamonaviy jamiyatda shaxs ma'naviy madaniyatini rivojlantirish va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ularsiz shaxsning ma'naviy kamoloti va ijtimoiy barqarorlik ta'minlanmaydi, ijtimoiy munosabatlarda adolat, tenglik, erkinlik hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar buzilishi ehtimoli ortib boradi.

Dissertatsiyada ma'rifiy tashkilotlarning shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi asosiy funksiyalari ochib berilgan:

Birinchidan, bilim tarqatish va ta'lim berish orqali ular fuqarolarning intellektual salohiyatini mustahkamlaydi, tanqidiy fikrlash va huquqiy madaniyatini yuksaltirib, jamiyatda demokratiya va adolatni rivojlantiradi.

Ikkinchidan, targ'ibot va tashviqot ishlari ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilish, fuqarolik ongi va mas'uliyatni oshirishga xizmat qiladi. Yoshlar tarbiyasi va ijtimoiylashtirish kelajak avlodni faol va mas'ul fuqarolar sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Uchinchidan, madaniy merosni asrash va ommalashtirish, milliy identifikatsiya va madaniy barqarorlikni ta'minlab, yosh avlodda milliy g'ururni uyg'otadi. Ijtimoiy tenglik va inklyuzivlik funksiyalari barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratadi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

To'rtinchidan, ommaviy axborot vositalari orqali ta'sir qilish orqali jamiyatda fikr va qarashlarni shakllantirish, ma'naviy muhitni barqarorlashtirish va axborot immunitetini rivojlantirishda markaziy ahamiyatga ega.

Shu tariqa, ma'rifiy tashkilotlar shaxs ma'naviy kamoloti, fuqarolik mas'uliyati va jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy institut hisoblanadi. Ular bilim, ma'rifat, axloq va huquqiy tarbiyaning integral tizimini shakllantiruvchi mexanizm sifatida jamiyatda intellektual va ma'naviy uyg'unlikni ta'minlaydi.

Tadqiqotda **ma'rifiy tashkilotlarning shaxs ma'naviy madaniyatiga ta'sir ko'rsatish shakllari va uslublari** tadqiq etilgan. Shaxsning ma'naviy madaniyati jamiyatdagi axloqiy, estetik va intellektual rivojlanishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ma'rifiy tashkilotlar shaxs ma'naviy kamolotiga ta'sir qilishda muhim omil hisoblanadi, chunki ular tarbiya va ta'lim jarayonlarida aniq pedagogik metodologiya va uslublardan foydalanib, jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shadilar. Ma'rifiy tashkilotlar orqali shaxsning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini shakllantiriladi, dunyoqarashi kengaydi, insoniylik xislatlari rivojlanadi. Jamiyatda insonlarning ma'naviy kamoloti ta'minlanmagan taqdirda, mehr-oqibat, sadoqat, vijdon va adolatparvarlik kabi fazilatlar yo'qoladi. Globalizatsiya va texnokratik taraqqiyot jarayonida shakllanayotgan ma'naviy va mafkuraviy tazyiqlarga qarshi ma'rifiy tashkilotlar faoliyatining roli tobora ortmoqda. Ular quyidagi uslublarda amalga oshiriladi:

1. Ta'lim va o'qitish uslublari orqali shaxsning ilmiy bilimlari, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda asosiy omil sanaladi.

2. Madaniyat va san'at faoliyatlari asosida shaxsning estetik, axloqiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirib, jamiyatdagi bag'rikenglik va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Yoshlar va o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash – yoshlarni o'z harakatlari uchun javobgarlik his qilish, ijtimoiy qoidalarga bo'ysinish va insoniy qadriyatlar asosida fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.

4. Innovatsion va texnologik yondashuvlar zamonaviy ma'rifiy tashkilotlarda onlayn ta'lim, masofaviy o'qitish platformalari, multimedia va interaktiv metodlardan foydalanib, ta'lim sifatini oshiradi va shaxsning kreativlik hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

5. Madaniy markazlar va kutubxonalar faoliyatining yo'lga qo'yilishi shaxsning intellektual va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi, bilimlarni o'zlashtirish va ijtimoiy tafakkurni shakllantirish uchun zarur infratuzilmani ta'minlaydi.

6. Guruhlarda ishlash va jamoaviy tarbiya shaxsning kommunikativ qobiliyatlari, empatiya, liderlik va ijtimoiy hamkorlik salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ma'rifiy tashkilotlar shaxs ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda ahamiyatli vosita hisoblanadi. Ularning faoliyati ta'lim va tarbiya, madaniyat va san'at, axloqiy tarbiya, innovatsion texnologiyalar, madaniy muassasalar va jamoaviy faoliyatlar orqali shaxsning ijtimoiy, axloqiy va estetik rivojlanishini ta'minlaydi.

Dissertant fikricha, ma'rifiy tashkilotlar jamiyatni modernizatsiyalash va ijtimoiy taraqqiyotga undashda muhim ijtimoiy institutlar hisoblanadi, chunki:

birinchidan, ta'lim muassasalari shaxslarning axloqiy, ma'naviy va intellektual rivojlanishini ta'minlaydi, ularni jamiyatdagi ijtimoiy vazifalarga tayyorlaydi. Ma'rifiy tashkilotlar orqali shaxslar o'z ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirib, turli ijtimoiy guruhlar bilan hamkorlikda ishlash qobiliyatiga ega bo'ladi. Ta'limning ijtimoiy ahamiyati shaxslarning bilim va ko'nikmalari, ijtimoiy mas'uliyati va barqarorligi bilan belgilanadi;

ikkinchidan, ma'rifiy tashkilotlar shaxslarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga yordam beradi. Ushbu muassasalar shaxslarni jamiyatning umumiy madaniy qadriyatlariga moslashtirib, ularda insoniylik, adolat va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiradi. Shu orqali jamiyatda barqarorlik va axloqiy hamjihatlik ta'minlanadi;

uchinchidan, ijtimoiy integratsiya asosida bo'lib, ta'lim jarayoni shaxsning jamiyatga integratsiyasini ta'minlaydi, ijtimoiy ahamiyatli vazifalarni tushunishga yordam beradi va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi;

to'rtinchidan, madaniy munosabatlar va evolyutsiya shaxslarning turli madaniy manbalarga ega bo'lishini qo'llab-quvvatlaydi, madaniy bag'rikenglikni mustahkamlaydi va jamiyatda hamkorlik muhitini yaratadi. Ta'lim muassasalari madaniy evolyutsiyada faol ishtirokchi sifatida shaxsni yangi bilim va madaniy qadriyatlar bilan ta'minlaydi;

beshinchidan, ijtimoiy hamkorlik va ma'lumotlar almashinuvi shaxslar va ma'rifiy tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi. Bu jarayon jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy taraqqiyotning samaradorligini oshiradi, shaxslarning fuqarolik mas'uliyatini rivojlantiradi.

Shaxs va ma'rifiy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar jamiyatning barqaror rivojlanishi, axloqiy va madaniy qadriyatlarini mustahkamlash, shaxsning ijtimoiy integratsiyasi va madaniy o'sishini ta'minlaydi. Ta'lim va ma'rifat jarayonlari shaxsning individual rivojlanishi hamda umumiy jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ma'rifiy tashkilotlar insonning axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirish va fuqarolik javobgarligini rivojlantirishda muhim vazifani bajaradi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ma'rifiy tashkilotlarning shaxs ma'naviy madaniyati shakllanishidagi roli nihoyatda yuqori. Ularsiz shaxs ma'naviy

madaniyati takomiliga yetmaydi, jamiyat taraqqiyotga erisholmaydi. Ma'rifiy tashkilotlar shaxsning ma'naviy madaniyatiga ta'sir qilishda bir nechta uslub va shakllardan foydalanadi. Bu jarayonlarning asosiy elementlaridan biri ta'lim jarayonlari orqali axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilishdir. Shaxs va ma'rifiy tashkilotlar o'rasidagi o'zaro ta'sir jamiyatning axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash, madaniy xilma-xillikni rag'batlantirish va axloqiy me'yorlarning saqlanishiga yordam beradi. Ma'rifiy tashkilotlar infratuzilmasining global sivilizatsiyaviy o'rni va madaniyatlararo transformatsiyasi – zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs ma'naviy olamini milliy va umuminsoniy qadriyatlar sintezi asosida boyitishning strategik mexanizmi hisoblanadi. Mazkur institutlar tarmog'i shaxsni tor lokal makondan chiqib, global ijtimoiy-madaniy makonga integratsiyalashuviga ko'maklashadi.

Dissertatsiyaning **“Ma'rifiy tashkilotlar faoliyatini optimallashtirish muammolari va yechimlari”** deb nomlangan uchinchi bobida ma'rifiy tashkilotlar faoliyati dinamikasidagi sotsiomadaniy o'zgarishlar va to'siqlar, ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari va ma'rifiy tashabbuslarni rivojlantirishda davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati institutlari integratsiyasini optimallashtirish yo'llari ochib berilgan.

Zamonaviy jamiyatda ma'rifiy tashkilotlar faoliyatida qator muammolar va cheklovlar saqlanib qolmoqda: *birinchidan*, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi; *ikkinchidan*, malakali kadrlarning yetishmasligi; *uchinchidan*, moliyalashtirish muammolari; *to'rtinchidan*, axborot texnologiyalarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar; *beshinchidan*, g'oyaviy xatarlar va mafkuraviy tahdidlar; *oltinchidan*, jamoatchilik bilan hamkorlikni mustahkamlash. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasida yaqin hamkorlik, innovatsion yondashuvlar, kadrlar salohiyatini oshirish hamda jamiyatda ma'rifatga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirish zarur. Chunki, ma'rifiy tashkilotlarni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish garovidir. Bundan tashqari global axborot makonidagi tahdidlar, yolg'on ma'lumotlar, mafkuraviy xurujlar va yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasining shakllanmaganligi kabi omillar ham ma'rifiy tashkilotlarning vazifalarini murakkablashtirmoqda. Shu boisdan, bu tashkilotlarning faoliyatini tahlil qilish, mavjud muammolarni bartaraf etish va yangi innovatsion yondashuvlar asosida isloh qilish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim vazifalardan hisoblanadi.

Tadqiqotda **ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari aniqlashtirilgan**. Ma'rifiy tashkilotlarning samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy muhitga bog'liq. Jamiyatdagi islohotlar, ta'lim va madaniyat sohalaridagi yangilanishlar ushbu tashkilotlarning maqsad va vazifalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Ma'rifatni keng targ'ib qilishda faqatgina an'anaviy vositalar emas, balki raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va integrativ resurslardan samarali foydalanish talab etiladi. Bu esa, o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash, yangi bilim

va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash, ta'lim va tarbiyani sifatini oshirishni taqozo etadi.

Dissertant fikricha, ma'rifiy faoliyatning ilmiy va ijtimoiy ahamiyati ko'p jihatdan insonni o'sishga, intilishga, fuqarolik mas'uliyatini his qilishga va jamiyatning ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarini o'rganishga yordam berishi bilan izohlanadi. Har bir shaxsning ichki hayoti va ijtimoiy shakllariga e'tibor berish, mafkuraviy va madaniy qadriyatlarni o'rganishning muhimligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi turli faoliyat shakllari samarasini oshirish orqali jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish, ushbu shiddatkor jarayonni yanada optimallashtirishga alohida ahamiyat qaratish darkor⁸.

